

## DUOLAR KITABI

### Kasallikdan shifo istab o'qiladigan duo

Biror kasallikka yo'liqqan kishi, bu kasallikdan xalos bo'lishi uchun hech vaqt o'tkazmay, mutaxassis shifokorlarga murojaat qilishi, uning tavsiyalariga amal qilib, ayni paytda duodan ham foydalanmog'i lozim. Bu duolarni bemorning o'zi o'qishi yoki birov unga o'qishi mumkin.

Tahoratli holda avvalo Fotiha surasi, so'ngra Qur'oni karimdan shifo oyatlari o'qiladi.

Bismillahir rohmānir rohiym. Va yashfi suduro qovmin mu'miniyna va yuzhib g'oyzo qulubihim.

«Alloh mo'minlar qavmi signalariga shifo beradi va dillaridagi alamni ketkazadi» (*Tavba, 14-15*).

Ya ayyuhan-nasu qod jaatkum mav'izotun min Robbikum va shifaun lima fis-suduri va hudan va rohmatan lil-mu'miniyn.

«Ey odamlar! Sizlarga Robbingizdan va'z (nasihat), dillardagi narsa (shirk illati)ga shifo va mo'minlarga hidoyat va rahmat keldi» (*Yunus, 57*).

Va nunazzilu minal Qur'ani ma huva shifaun va rohmatun lil-muminiyn.

«(Biz) Qur'onda(n) mo'minlar uchun shifo va rahmat bo'lgan (oyat)larni nozil qilurmiz» (*Al-Isro, 82*).

Qul huva lil-laziyna amanu hudan va shifaun

«Aytin: «(Ushbu Qur'on) imon keltirgan zotlar uchun hidoyat va shifodir».

Bu oyatlar o'qilgach, bunday duo etiladi: «Allohumma Robban-nasi azhibil-basa, ishfi Antash-shafiy la shifaa illa shifauka, shifaan la yug'odiru saqoman».

«Allohim, ey insonlarning Rabbi, kasallikni mahv etuvchi! Ortda kasallikni qoldirmaydigan shifo ber. Shifo berguvchi faqat O'zingsan. Sendan o'zga shifo berguvchi yo'qdir» (*Abu Dovud. «Janoiz», 3107-hadis*).

Allohumma ishfi 'abdaka yankalaka 'aduvvan av yamshi laka ila solatin.

«Allohim, shu bandangga shifo berginki, Sening bir dushmaningga ziyon yetkazsin yoxud Sening rizoligingga erishmoq uchun namoz o'qishga yurib borsin».

Bismillahi arqika min kulli shayin yuzika min sharri kulli nafsin av 'aynu hasidiyn. Allohumma yashfiyka, bismillahi arqika.

«Senga iztirob beruvchi hamma narsadan, har hasadgo'y nafsdan yoxud ko'zdan Allohning nomi ila senga shifo so'rayman. Alloh nomi ila senga shifo so'rayman» (*Termiziy. «Janoiz», 972-hadis*).

### Nikoh kechasida o'qiladigan duo

Ikki rakat namoz o'qib, Allohdan mas'ud bo'lishlarini so'rab, duo qilgach, «Bismillah...» aytib «Robbana hablana min azvajina va zurriyyatina qurrota a'yunin vaj'alna lil-muttaqiyna imama».

«Parvardigoro, xotinlarimizdan va zurriyotlarimizdan bizlarga ko'z quvonchini baxsh et va bizlarni taqvodorlarga peshvo qilgin» (*Furqon surasi, 74-oyat*) oyatini o'qib, zavjasi bilan birga bo'lishdan oldin «Bismillahir roh-manir rohiym. Allohmma jannibnash-shaytona va jannibish-shaytona ma rozaqtana».

«Allohim, shaytonni bizdan va bizga ato etganing farzanddan uzoqlashtir» (*Buxoriy. «Nikoh», 66*) duosini o'qiydi.

### **Homilador ayol o'qiydigan duo**

Homilador ayol tibbiy muolajalardan o'tish bilan birga diniy vazifalarni ado etishi va fursat topishi bilan «Oyatal kursi» va «Sharh» surasini, so'ng ushbu duoni o'qishi maqbuldir:

«Allohumma a'tina sihhatan va 'afiyatan va avladan solihan va rizqon vasi'an va du'aan maqbulan».

«Allohim, bizga sog'liq va ofiyat ber. Xayrli farzandlar ehson et. Mo'l rizq ber, duoimni qabul ayla».

### **Ko'z yorarda o'qiladigan duo**

Bunday paytda ayolning yaqinlari uning yonida yoxud qo'shni xonada «Oyatal kursi»ni, so'ngra A'rof surasining 54-oyatini o'qishadi:

«Inna robbakumullaziy xolaqos-samavati val-arzo fiy sittati ayyamin summas-tava 'alal-'arshi, yug'shil-laylan-naharo yatlubuhu hasisan vash-shamsa val-qomaro van-nujuma musaxxorotin bi amrih, ala lahul-xolqu val-amru tabarokallohu Robbul-'alamiyn».

«Darhaqiqat, Rabbingiz osmonlaru Yerni olti kunda yaratgan, so'ngra Arshga istivo qilgan, kunduzga tunni qoplatadigan-uni (ya'ni, tun-kunni) shitob quviydi – quyosh oy, yulduzlarni O'z amriga musaxxar (mute) qilib qo'ygan Allohdir. Ogoh bo'lingizki, yaratish va buyurish Unga xosdir. Olamlarning rabbi Alloh barakotlidir».

Bu oyatdan keyin Ixlos, Falaq, Nas suralari va Fotiha o'qiladi. Xayrli bir farzand berilishi uchun duo qilinadi.

### **Solih farzandning duosi**

Islomiy tarbiya ko'rgan inson ota-onasi keksayganda, ularni xorlamaydi, dillarini ranjitmaydi. Ularning haqlariga bunday duo qiladi:

Robbir-xamhuma kama robbayaniy sog'iyro.

«Parvardigoro, ota-onamga marhamat et, ular meni marhamat-la voyaga yetkazganlari kabi» (*Tahrim, 8*).

### **Masjidga kirayotganda...**

Allohumma-aftah li abvaba rohmatik.

«Allohim, menga rahmat eshiklaringni och».

### **Masjiddan chiqayotganda...**

Allohumma inni asaluka min-fazlik.

“Allohim, Sening fazling va karamingni so‘rayman”.

### **Qabr ziyoratida o‘qiladigan duo**

Assalamu ‘alaykum ya ahlal-qubur. Yag‘firullohu lana va lakum, antum salafuna va nahnu bil-isri.

«Assalomu alaykum, ey qabr ahli. Alloh bizni va sizlarni mag‘firat etsin. Sizlar bizdan oldin kelganlardansiz, biz ham sizlarning orqalaringizdan kelamiz».

### **Hojatxonaga kirishdan oldin...**

Allohumma inniy a‘uzu bika minar-rijsil-xobisil-muxbisi minash-shaytonir-rojjim.

«Allohim, iflos va yomon narsalar bilan quvilgan shaytonning yomonligidan Sening panohingga qochaman».

### **Hojatxonadan chiqqanda...**

Alhamdulillahillaziy azhaba anniy ma-yu‘zini va amsa-ka ‘alayya ma yanfauniy subhanaka g‘ufronaka robbana va ilaykal-masiyr.

«Mendan aziyat beruvchi narsani ketkazib, foydalisini qoldirgan Allohga hamd bo‘lsin. Allohim, Seni nomingni poklab yod etaman va mag‘firatingni so‘rayman. Ey Robbimiz, qaytishimiz Sengadir».

### **Uydan chiqayotganda...**

Bismillahi tavakaltu ‘alallohi, va la havla va la quvvata illa billah.

«Alloh nomi ila, Allohga tavakkal qilgan holda... Kuch va quvvat faqat Alloh dandir» (*Abu Dovud. «Adab», 5094-hadis*).

### **Uyga kirayotganda...**

Allohumma inniy asaluka xoyrol-mavlaji va xoyrol-maxroji bismillahi va lijna va bismillahi xorojna va ‘alallohi Robbana tavakkalna.

«Allohim, Sendan kirayotganim va chiqayotganim joylarning yaxshisini so‘rayman. Allohning nomi ila kirdik. Allohning nomi ila chiqdik. Robbimiz Allohga tavakkul etdik».

### **Uyquda qo‘rqqan kishining duosi**

A‘uzu bi-kalimatillahit-taammati min-g‘ozabihi va sharri ‘ibadihi va min hamazatish-shayatiyni va an yaxzurun.

«Allohning g‘azabidan, qullarining yomonligidan, shaytonlarning har turli yomonligidan Allohning barcha kalimalariga yukinaman» (*Abu Dovud. «Tib», 3893-hadis*).

### **Dasturxon duosi**

Alhamdulillahillaziy at‘amana va saqona vaja‘alana minal-muslimiyn.

«Bizni yedirib-ichirgan va musulmonlardan qilgan Allohga hamd bo‘lsin».

## Farzand tilash duosi

Robbi la tazarni fardav va anta xoyrul varisiyn.

«Parvardigorim! Meni (vorissiz) yolgʻiz qoldirma. (Agar voris bermasang ham) Sening Oʻzing vorislarning eng yaxshisidan» (*Anbiyo, 89*).

## Gʻazablanganda oʻqiladigan duo

Allohummagʻfir liy zanbiy va azhab gʻoyzo qolbiy va ajirniy minash-shaytonir-rojiym.

Allohim, gunohlarimni kechir, qalbimning hiddatini (gʻazabini, alangasini) ketkaz va meni shaytonning yomonligidan asra.

Shunda ham gʻazab ketmasa, imkon topilsa, tahorat olib ikki rakat namoz oʻqish, «Alam nashroh laka...» surasini tilovat qilish va yuqoridagi duoni takrorlash lozim.

## Uy sotib olib, joylashgach oʻqiladigan duo

Tahorat olib ikki rakat namoz oʻqiladi va: «Alhamdulillah robbil ʻalamiyn. Vas-solatu vas-salamu ʻala ra-sulina Muhammadin va ʻala alihi va sahbihi ajmaʻiyn. Aʻuzu billahi minash-shaytonir-rojiym. Bismillahir rohmanir rohiym. La in shakartum la aziydannakum va lain kafartum inna azabiy lashadiyd», degach, quyidagicha duo qilinadi:

Allohim, menga oilam bilan birga yashaladigan bir maskan nasib etding, Senga shukrlar boʻlsin. Meni va oilamni bu uyda masʻud va baxtiyor ayla. Bizni har turli balo-qazolardan, falokatlardan saqla. Allohim, biz ojiz bandalarmiz. Bu uy gunohlar emas, balki faqat xayrli va goʻzal ishlar haqida gapiriladigan va ezgu amallar bajariladigan joy boʻlsin. Rabbim, qoʻshnilarimga aziyat yetkazishdan meni asra. Yaxshi qoʻshnilar nasib et. Allohim, Senga hamdu sano, suyuqli Paygʻambaringga salotu salomlar boʻlsin.

## Koʻz tegishga qarshi oʻqiladigan duo

Koʻz tegishga qarshi Fotiha surasi va «Oyatal kursi»dan soʻng ushbu oyatlar oʻqiladi:

Bismillahir rohmanir rohiym. Va in yakadullaziyna kafaru layuzliqunaka bi absorihim lamma samiʻuzzikro va yaquluna innahu lamajnun. Va ma huva illa zikrul-lil-ʻalamiyn.

«Albatta, kofir kimsalar Zikrni (Qurʻonni) eshitgan vaqtlarida, Sizni koʻzlari bilan yiqitayozurlar va «albatta, u majnun», derlar. Holbuki, u (Qurʻon barcha) olamlar uchun eslatmadir» (*Qalam, 51–52*).

## Sadaqa berayotganda...

Robbana taqobbal minna innaka antas-samiʻul ʻaliym.

«Ey Robbimiz, bizdan uni qabul ayla, chunki Sen eshitguvchi va bilguvchisan».

## Aksirgan kishiga aytiladigan duo

Aksirgan kishi, yonida biror odam boʻlsa ham, boʻlmasa ham, «Alhamdulillah» deydi. Janobi Paygʻambarimiz (s.a.v.) aksirgan kishiga yonidagilarning «Yarhamukalloh» (Alloh senga rahmat etsin) deyishini tavsiya qilganlar. Aksa urgan kishi esa «Yarhamukallohu va iyyakum va yagʻfiru lana va lakum» (Alloh bizga ham, sizga ham rahmat aylasin, bizni ham, sizni ham afu etsin) yoxud «Yahdina va yahdiyukumulloh» (Alloh bizni ham, sizni ham hidoyatga boshlasin) deydi.

## Hilol (yangi oy) ko'ringanida...

Talha ibn Ubaydullohdan (r.a.) rivoyat qilinishicha, Janobi Payg'ambarimiz (s.a.v.) yangi oyni ko'rganlarida bunday duoni o'qiganlar: *Allohumma ahillahu 'alayna bil-yumni val-iymani vas-salamati val-islam, robbiy va robbukalloh.*

Allohim, bu oyni bizga qutlug' va barakatli bir oy ayla. Imon, salomat va Islom-la liq to'lib bezangan kechalarda chiqsin. Ey hilol! Sening ham, mening ham Rabbimiz Allohdir (*Termiziy. «Da'vat», 3677-hadis*).

## Ulovga minilayotganda o'qiladigan duo

«Oyatal kursi» o'qilgach, «Subhanallaziy saxxoro lana haza va ma kunna lahu muqriniyn. Va inna ila robbina lamun-qolibun. Bismillahi majroha va mursoha. Inna robbiy la G'ofurur-Rohiyim» deyiladi.

Davomida quyidagicha duo aytilsa ham bo'ladi: Allohim, Sening noming bilan yo'lga chiqmoqdaman. Menga sog'liq va halol kasb nasib etganing uchun Senga shukrlar aytaman. Yo'l davomida meni va ulovimga mingan yo'lovchilarni balo-qazolardan, har turlik xavfu xatarlardan O'zing asra, yordamingni darig' tutma bizdan, yo Rabbiy. Biz qanchalar gunohkor bo'lmaylik, Sen bizni mag'firat et. Manzilimizga eson-omon yetib borishni nasib ayla. Farzandlarimizni yetim qoldirma, Parvardigoro. Qaytishimizda oilamizni g'am-anduhsiz ko'rmoqni lutf ayla. Sen hamma narsaga qodir Zotsan, Allohim.

## Farishtalarning mo'minlarga duosi

Arshni ko'tarib turgan va uning atrofidagi farishtalar mo'minlar haqiga bunday duo qilishadi: *Robbana vasi'ta kulla shay'in rohmatan va 'ilman fag'fir lillaziyna tabu vattaba'u sabiy'laka vaqihim azabal-jahiyim. Robbana va adxil-hum jannati 'adninillatiy va adtahum va man solaha min abaihim va azvajihim va zurriyatihim innaka antal azizul hakiym. Vaqihimus-sayyiati, va man taqis-sayyiati, yavmaizin faqod rohimtah va zalika huval favzul 'aziyim.*

«Parvardigoro, O'zing rahmat va ilm jihatdan barcha narsada kengdirsan. Bas, tavba qilgan va yo'lingga ergashgan kishilarni mag'firat et va ularni do'zax azobidan saqla. Parvardigoro, ularni ham, ularning ota-bobolari, jufti halollari va zurriyotlari orasidagi solih bo'lgan kishilarni ham O'zing ularga va'da qilgan mangu jannatlarga doxil qilgin. Albatta, Sen qudrat va hikmat sohibidirsan» (*Mo'min surasi, 7-9*).

## Do'kon yoxud ishxonani ochayotganda...

*Allohumma ya mufattihal-abvab, iftah lana xoyril-bab. Allohummarzuqna rizqan halalan toyiban, va rizqon vasian birohmatika ya Arhamar –Rohimiyn, va Anta xoyrur-Roziqiyn.*

Ey eshiklarni ochuvchi Allohim! Bizga xayrli eshiklarni och. Allohim! Bizga halol va toza rizqlar ehson ayla, rizqimizni kengaytir, ey marhamatli larning marhamatlisi! Rizq berguvchilarning eng xayrlisi Sensan!

## Kambag'allikdan qutulish duosi

*Bismillahi 'ala nafsi va mali va dini. Allohumma rozzini bi qozoika va barik li fima quddiro li hatta la uhibba ta'jila ma axxarta va la ta'xira ma ajjalta.*

O'zim, molim va dinim xususida Alloh nomi bilan (so'rayman). Allohim, qazo va hukmingga meni rozi qil, menga taqdir etganing narsalarni barakatli et. Shunday bo'lsinki, keyinga qoldirganingni hozir, hozir beradiganingni keyin so'rab yurmayin (*«Al-azkor», 116-bet*).

## Dars tayyorlashda yoki imtihonga kirishda o'qiladigan duo

*(Tahoratli holda dars tayyorlagan yaxshi. Duolar «Bismilloh...»dan so'ng o'qiladi.)*

Robbi zidni 'ilman va fahman val-hiqni bis-solihin. Robbishroh li sodri va yassir li amri vahlul 'uqdatan min lisani yafqohu qovli ya Hafiz, ya Roqib, ya Nasir, ya Alloh. Robbi yassir va la tu'assir. Robbi tammim bil-xoyri.

Rabbim! Ilmimni va zehnimni orttir va meni solih bandalaring qatoriga qo'sh.

Rabbim! Ko'ksimni och, ishimni oson ayla va tilimning tugunini yechgin, so'zimni tushunsinlar. O' Hofiz, yo Roqib, yo Nosir, yo Alloh.

Rabbim! Oson qilgin, qiyin qilma. Rabbim, (ishimni) yaxshilik bilan tugatgin.

*(Imtihonga kirishdan oldin uch, besh yoki yetti marta Oyatal kursi" o'qiladi.)*

## Safar duosi

Allohumma ilayka tavajjahtu va bika i'tasomtu. Allohumma akfini ma ahammani va ma la ahtamtu lahu.

Allohumma zavvidnit-taqva, vag'firli zanbi va vajjihni lil-xoyri ayna ma tavajjahtu.

Allohim, Sen tomon intildim. Senga yukindim. Allohim, meni andishalantirgan yoxud andishalantirmagan xusustlarda Sen menga kifoya qil. Taqvoni menga ozuqa qil, Allohim! Gunohimni kechir va qaerga bormayin, meni doimo yaxshilikka boshla, yo Rabbiy. *(Payg'ambarimiz, sollallohu alayhi va sallam, har gal yo'lga chiqqanda ushbu duoni o'qir edilar.) («Al-azkor», 195-bet).*

Bismillahir rohmanir rohiym. Subhanallaziy saxxora lana haza va ma kunna lahu muqriniyn. Va inna ila Robbina la munqolibun.

«Bu ulovlarni bizning xizmatimizga bergan Alloh buyukdir. U barcha aybu nuqsonlardan munazzahdir. Yo'qsa, bizning bularga kuchimiz yetmas edi» oyati o'qiladi va uch marta «Alhamdulillah» va uch marta «Allohu akbar» degach:

Subhanaka inni zolamtu nafsi fag'firli, innahu la yag'firuz-zunuba illa Anta.

Allohni aybu nuqsonlardan poklab yod etaman, men o'z nafsimga zulm qildim. Allohim! Meni kechir. Chunki Sendan boshqa kechirguvchi yo'q («Az-azkor», 145-bet).

## O'lim xabarini eshitganda o'qiladigan duo

Inna lillahi va inna ilayhi roji'un. Allohum maktubhu fil-muhsiniyna vaj'al kitabahu fiy illiyyin. Vaxlufhu 'ala 'aqobihi fil-g'obirin. Allohumma la tuharrimna ajrohu vala taftinna ba'dahu vag'fir lana va lah.

Bizni Alloh keltirdi, yana Unga qaytamiz va albatta Rabbimizga qovushamiz. Allohim! Uni(mayyitni) dargohingdagi yaxshi kishilar qatoriga yoz, kitobini fazilatlaridan ayla. Ortda qolganlariga kafil bo'l.

Allohim! Bizni uning ajridan mahrum etma. Undan ke-yin bizni fitnaga yo'liqtirma, bizni va uni afv et.

Арафа кунининг ашийясида холи қолиш имконингиз бўлса, албатта шундай қилинг.

Ашийя – аср намозидан тортиб шом намозига азон айтилгунига қадар бўлган вақт.

Солиҳлардан бири шундай дейди:

Арафа кунида қайси дуони қилган бўлсам, бир йил ҳам ўтмасдан (унинг жавобини) оппоқ тонгдек кўрдим.

Ўзингларга ўзинглар яхшилик қилинглар.

Дуоларингизда бизни, ота-онамизни ва зурриётимизни ҳам тилга олишни унутманглар.

Қуйида оят ва ҳадисларга биноан дуолар тўпламини келтирамыз:

### Дуолар

«لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ سُبْحَانَكَ إِنِّي كُنْتُ مِنَ الظَّالِمِينَ»

Сендан ўзга ҳеч бир илоҳ йўқдир, мен хақиқатда ўзига-ўзи зулм қилганлардан бўлдим...».

( اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ بِأَنِّي أَشْهَدُ أَنَّكَ أَنْتَ اللَّهُ، لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ الْأَحَدُ الصَّمَدُ الَّذِي لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ )

Эй Аллоҳ! Мен Сендан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ деб, Сен ёлғиз, шериксиз, туғмаган ҳам, туғилмаган ҳам ва ҳеч бир тенги бўлмаган Самад – беҳожат Зотлигинга гувоҳлик келтирганим туфайли сўрайман. (Абу Довуд, Термизий, Ибн Можа ва Аҳмад ривояти)

( اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ مِنْ عَذَابِ الْقَبْرِ، وَمِنْ عَذَابِ جَهَنَّمَ، وَمِنْ فِتْنَةِ الْمَحْيَا وَالْمَمَاتِ، وَمِنْ شَرِّ فِتْنَةِ الْمَسِيحِ الدَّجَالِ )

Парвардигоро! Мен Сендан қабр азобидан, жаҳаннам азобидан, тириклик ва ўлим фитнасидан ҳамда масиҳи Дажжол фитнасининг ёмонлигидан паноҳ беришингни сўрайман. (Бухорий ва Муслим ривояти).

( اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ مِنْ عَذَابِ الْقَبْرِ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنْ فِتْنَةِ الْمَسِيحِ الدَّجَالِ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنْ فِتْنَةِ الْمَحْيَا وَالْمَمَاتِ، اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ مِنْ ( الْمَأْتَمِّ وَالْمُعْرَمِ )

Эй Аллоҳ! Мен Сендан қабр азобидан, масиҳи Дажжол фитнасидан ва тириклик ҳамда ўлим фитнасидан паноҳ беришингни сўрайман! Парвардигоро! Мен Сендан гуноҳ ва (ножоиз бўлган ёки тўлашнинг имкони бўлмайдиган) қарздан паноҳ беришингни сўрайман! (Бухорий ва Муслим ривояти).

( اللَّهُمَّ إِنِّي ظَلَمْتُ نَفْسِي ظُلْمًا كَثِيرًا، وَلَا يَغْفِرُ الذُّنُوبَ إِلَّا أَنْتَ، فَاعْفُورْ لِي مَغْفُورَةً مِنْ عِنْدِكَ وَارْحَمْنِي، إِنَّكَ أَنْتَ الْعَفُورُ الرَّحِيمُ )

Парвардигоро! Албатта мен ўз нафсимга кўп зулмлар қилдим. Гуноҳларни ёлғиз Сенгина кечирувчисан. Мени Ўз марҳаматинг – Ўз томонингдан бўладиган мағфират билан кечир, раҳм эт! Албатта Сен кечирувчи ва раҳмли Зотдирсан. (Бухорий ва Муслим ривояти).

اللَّهُمَّ اغْفِرْ لِي مَا قَدَّمْتُ، وَمَا أَحْرَزْتُ، وَمَا أَسْرَزْتُ، وَمَا أَعْلَنْتُ، وَمَا أَسْرَفْتُ، وَمَا أَنْتَ أَعْلَمُ بِهِ مِنِّي، أَنْتَ الْمَقْدِمُ، وَأَنْتَ الْمُؤَجَّرُ، لَا (إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ).

Парвардигоро! Менинг аввал қилганларимни ҳам, (кейин) охир қилганларимни ҳам, яширин қилганларимни ҳам, ошкор қилганларимни ҳам, исрофларимни ҳам ва Ўзинг мендан кўра яхшироқ биладиган (ишларим – гуноҳларим)ни ҳам мағфират эт. Аввал этувчи ҳам, охир этувчи ҳам Сенсан. Сендан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ! (Муслим ривояти).

(اللَّهُمَّ أَعْيِي عَلَيَّ ذِكْرَكَ، وَشُكْرَكَ، وَحُسْنَ عِبَادَتِكَ).

Эй Аллоҳ! Сени зикр этишга, Сенга шукр қилишга ва гўзал ибодатингга мени мушарраф эт-қўмак бер. (Абу Довуд ва Насоий ривояти).

(اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ مِنَ النَّحْلِ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنَ الْجُبْنِ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنْ أَنْ أُرَدَّ إِلَى أَرْذَلِ الْعُمُرِ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنْ فِتْنَةِ الدُّنْيَا، وَعَذَابِ الْقَبْرِ).

Парвардигоро! Мен Сендан бахиллик, қўрқоқлик ва тубан-разил умр (ҳаёт)га қайтарилишдан паноҳ беришингни сўрайман. Эй Аллоҳ! Мен Сендан дунё фитнаси ва қабр азобидан паноҳ беришингни сўрайман. (Бухорий ривояти).

(اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ الْجَنَّةَ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنَ النَّارِ).

Парвардигоро! Мен Сендан жаннатни сўрайман ва дўзахдан паноҳ беришингни тилайман. (Абу Довуд ва Ибн Можа ривояти).

اللَّهُمَّ بَعْلَمِكَ الْعَلِيِّ، وَقُدْرَتِكَ عَلَى الْخَلْقِ، أَحْيَيْتَنِي مَا عَلِمْتَ الْحَيَاةَ خَيْرًا لِي، وَتَوَفَّيْتَنِي إِذَا عَلِمْتَ الْوَفَاةَ خَيْرًا لِي، اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ (خَشْيَتِكَ فِي الْعَلِيِّ وَالشَّهَادَةِ، وَأَسْأَلُكَ كَلِمَةَ الْحَقِّ فِي الرِّضَا وَالْعُضْبِ، وَأَسْأَلُكَ الْقَصْدَ فِي الْغِنَى وَالْفَقْرِ، وَأَسْأَلُكَ نَعِيمًا لَا يَنْفَدُ، وَأَسْأَلُكَ قُرَّةَ عَيْنٍ لَا تَنْقَطِعُ، وَأَسْأَلُكَ الرِّضَا بَعْدَ الْفُضَاءِ، وَأَسْأَلُكَ بَرْدَ الْعَيْشِ بَعْدَ الْمَوْتِ، وَأَسْأَلُكَ لَذَّةَ النَّظَرِ إِلَى وَجْهِكَ، وَالشُّوقَ إِلَى (لِقَائِكَ، فِي غَيْرِ صَرَاءٍ مُضِرَّةٍ، وَلَا فِتْنَةٍ مُضِلَّةٍ، اللَّهُمَّ رَبَّنَا بِرِزْقَةِ الْإِيمَانِ، وَاجْعَلْنَا هُدَاةً مُهْتَدِينَ).

Эй Аллоҳ ғайбни билишинг ва яратишга қодирлигинг билан (сўрайман) агар ҳаётни мен учун хайрли деб билсанг, яшат. Агар ўлимни мен учун хайрли деб билсанг, ўлим бер. Эй Аллоҳ! Мени ошқору ғайб (ишлар, ҳолат)да Ўзингдан қўрқадиган эт. Розилигу ғазаб (ҳолатда, иш)да ҳақни сўзлашни сўрайман. Бойликда ҳам, фақирликда ҳам тежамкорлик (исроф этмаслик)ни беришингни сўрайман. Туганмас неъмат, узилмас-абдий севинч сўрайман. Қазо-ҳукмдан кейин розиликни, ўлимдан сўнг яхши ҳаётни сўрайман. Юзингни кўриш лаззатини ва зарарли қайғуларсиз, адаштирувчи фитналарсиз висолинг шавқини сўрайман! Эй Аллоҳ! Бизни иймон зийнати ила зийнатла ва тўғри йўлга бошловчи, тўғри йўлда юрувчи (лардан) қил. (Насоий ва Аҳмад ривояти).

اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ يَا اللَّهُ، بِأَنَّكَ الْوَاحِدُ الْأَحَدُ الصَّمَدُ الَّذِي لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ، أَنْ تَغْفِرَ لِي ذُنُوبِي، إِنَّكَ أَنْتَ الْغَفُورُ (الرَّحِيمُ).

Эй Аллоҳ! Мен Сенинг яккаю ягона, туғмаган ҳам, туғилмаган ҳам ва ҳеч бир тенги бўлмаган Самад – беҳожат Зот эканлигинг билан сўрайман: Менинг гуноҳларимни кечир! Албатта, Сен кечиримли ва раҳмли Зотдирсан. (Насоий ва Аҳмад ривояти, Албоний саҳиҳ деган).

اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ بِأَنَّ لَكَ الْحَمْدَ، لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ وَحْدَكَ لَا شَرِيكَ لَكَ، الْمَنَانُ، يَا بَدِيعَ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ، يَاذَا الْجَلَالِ وَالْإِكْرَامِ، يَا حَيُّ (يَاقِيَوْمُ، إِنِّي أَسْأَلُكَ الْجَنَّةَ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنَ النَّارِ).



Парвадигоро! Ҳамд (ёлғиз) Сенгалиги, Сендан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқлиги, Сенинг ёлғиз, шериксиз ва яхшилиқни инъом қилувчи Зотлигинг билан сўрайман. Эй осмонлару ерни яратувчиси, улуғлик ва икром соҳиби, эй мангу тирик ва абадий турувчи! Мен Сендан жаннатни сўрайман ва дўзахдан паноҳ тилайман. (Абу Довуд, Насоий, Термизий ва Ибн Можа ривояти).

( اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ بِأَبِي أَشْهَدُ أَنَّكَ أَنْتَ اللَّهُ، لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ الْأَحَدُ الصَّمَدُ الَّذِي لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ )

Эй Аллоҳ! Мен Сендан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ деб, Сен ёлғиз, шериксиз, туғмаган ҳам, туғилмаган ҳам ва ҳеч бир тенги бўлмаган Самад – беҳожат Зотлигингга гувоҳлик келтирганим туфайли сўрайман. (Абу Довуд, Термизий, Ибн Можа ва Аҳмад ривояти).

( اللَّهُمَّ أَنْتَ رَبِّي، لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ، خَلَقْتَنِي وَأَنَا عَبْدُكَ، وَأَنَا عَلَى عَهْدِكَ وَوَعْدِكَ مَا اسْتَطَعْتُ، أَعُوذُ بِكَ مِنْ شَرِّ مَا صَنَعْتُ، أَبِوَاءُ لَكَ ( بِنِعْمَتِكَ عَلَيَّ، وَأَبِوَاءُ بَدَنِي، فَأَغْفِرْ لِي، فَإِنَّهُ لَا يَغْفِرُ الذُّنُوبَ إِلَّا أَنْتَ )

Эй Аллоҳ! Сен Роббимсан ва Сендан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ. Мен Сенинг қулингман. Мен қурбим етганича Сенинг (алмийсоқда олган) аҳд-паймонинг ва (Пайғамбаринг тилида берган; ширк келтирмаган бандангни жаннатга киритиш ) ваъданг (га эришиш)да (қўлимдан келганича тиришиб) турибман. Ўзим қилган нарсалар ёмонлигидан Сендан паноҳ бершингни тилайман. Сенинг менга берган неъматларингни ҳам, қилган гуноҳларимни ҳам эътироф этаман. Мени мағфират эт. Албатта, фақат Сенгина гуноҳларни кечирувчисан.

( اللَّهُمَّ عَافِنِي فِي بَدَنِي، اللَّهُمَّ عَافِنِي فِي سَمْعِي، اللَّهُمَّ عَافِنِي فِي بَصَرِي، لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ، اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ مِنَ الْكُفْرِ، وَالْفَقْرِ، وَأَعُوذُ ( بِكَ مِنْ عَذَابِ الْقَبْرِ، لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ )

Эй Аллоҳ! Менинг баданимни, қулоғимни ва кўзимни соғлом қил – офият бер! Сендан ўзга ҳеч қандай илоҳ йўқ! Эй Аллоҳим! Мен Сендан куфр ва фақирликдан паноҳ беришингни сўрайман. Қабр азобидан паноҳ тилайман. Сендан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ. (Бухорий, Абу Довуд ва Насоий ривояти).

( اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ الْعَفْوَ وَالْعَافِيَةَ فِي الدُّنْيَا وَالْآخِرَةِ، اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ الْعَفْوَ وَالْعَافِيَةَ فِي دِينِي، وَدُنْيَايَ، وَأَهْلِي، وَمَالِي، اللَّهُمَّ اسْتُرْ ( عَوْرَاتِي، وَأْمِنْ رُوعَاتِي، اللَّهُمَّ احْفَظْنِي مِنْ بَيْنِ يَدَيْ، وَمِنْ خَلْفِي، وَعَنْ يَمِينِي، وَعَنْ شِمَالِي، وَمِنْ فَوْقِي، وَأَعُوذُ بِعَظْمَتِكَ أَنْ أُغْتَالَ (مِنْ تَحْتِي).

Эй Аллоҳ! Мен Сендан дунё ва охиратда афву-офият сўрайман. Эй Аллоҳим! Мен Сендан динимда, дунёимда, аҳлимда ва молимда афву-офият тилайман. Эй Аллоҳ! Менинг авратимни беркит! Қўрқувимдан омонлик бер-кетказ. Эй Аллоҳ! Мени олдимдан ҳам, ортимдан ҳам, ўнгимдан ҳам, чапимдан ҳам, тепамдан ҳам, Ўзинг сақла! Оёғим остидан хиёнатга учрашдан Сенинг улуғлигингла паноҳ сўрайман. (Абу Довуд ва Ибн Можа ривояти).

( اللَّهُمَّ عَالِمِ الْغَيْبِ وَالشَّهَادَةِ، فَاطِرِ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ، رَبِّ كُلِّ شَيْءٍ وَمَلِيكُهُ، أَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ، أَعُوذُ بِكَ مِنْ شَرِّ نَفْسِي، وَمِنْ (شَرِّ الشَّيْطَانِ وَشَرِّكَه، وَأَنْ أَتَّزِفَ عَلَى نَفْسِي سُوءًا، أَوْ أُجْرَهُ إِلَى مُسْلِمٍ).

Ғайбу ошкорни билувчи, осмонлару ернинг яратувчиси, барча мавжудотнинг Парвардигори ва Молики-подшоҳи бўлган эй Аллоҳ! гувоҳлик бераманки, Сендан ўзга (ҳақ) маъбуд йўқ! Нафсимнинг ёмонлигидан, шайтоннинг ёмонлигидан ва унинг ширк (келтиришга чақириб қиладиган васвасаси)дан паноҳ беришингни илтижо қиламан. Ўзимга ёки бошқа бир муслимга ёмонлик етказишдан паноҳ тилайман. (Термизий ва Абу Довуд ривояти).

( يَا حَيُّ، يَا قَيُّوْمُ، بِرَحْمَتِكَ أَسْتَغِيْثُ، أَصْلِحْ لِيْ شَأْنِيْ كُلَّهُ، وَلَا تَكِلْنِيْ إِلَى نَفْسِيْ طَرْفَةَ عَيْنٍ )

Эй мангу ҳаёт ва абадий турувчи Зот! Сенинг раҳматинг билан мадад сўрайман. Менинг бутун шаъним-ишимни ўнгла ва мени бирон бир лаҳза ҳам ўзимга топшириб қўйма. (Ҳоким ривояти. Заҳабий саҳиҳ деган).

( سُبْحَانَ اللَّهِ وَبِحَمْدِهِ : عَدَدَ خَلْقِهِ، وَرِضَا نَفْسِهِ، وَزِنَةَ عَرْشِهِ، وَمِدَادَ كَلِمَاتِهِ )

Аллоҳ барча айбу нуқсонлардан покдир. Аллоҳга махлуқотлари ададича, нафсининг ризолигича, аршининг вазнича ва калималарининг (сонича) миқдорича ҳамд ва тасбеҳлар айтаман.(Муслим ривояти).

(اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ عِلْمًا نَافِعًا، وَرِزْقًا طَيِّبًا، وَعَمَلًا مُتَقَبَّلًا)

Парардигоро! Мен Сендан фойдали илм, покиза-ҳалол ризқ ва қабул бўладиган амал тилайман.(Ибн Сунний ва Ибн Можа ривояти).

( اللَّهُمَّ إِنَّكَ خَلَقْتَ نَفْسِي وَأَنْتَ تَوْفَاةَا، لَكَ مَمَاتُهَا وَمَحْيَاةَا، إِنْ أَحْيَيْتَهَا فَاحْفَظْهَا، وَإِنْ أَمَتَّهَا فَاعْفِرْ لَهَا، اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ الْعَافِيَةَ )

Эй Аллоҳ! Албатта, Сен нафсимни – мени яратдинг ва Сен уни вафот топдирувчидирсан. Нафсимнинг ўлими ҳам, ҳаётлиги ҳам Сенгадир. Агар унга ҳаёт берадиган бўлсанг, уни ҳифзу ҳимоя эт. Агар унга ўлим берадиган бўлсанг, мағфират қил. Эй Аллоҳ! Мен Сендан офият (соғлик, яхшилик) тилайман! (Муслим ва Аҳмад ривояти).

(اللَّهُمَّ قِنِي عَذَابَكَ، يَوْمَ تَبْعَثُ عِبَادَكَ)

Эй Аллоҳ! Бандаларингни қайта тирилтирадиган кунингда мени азобингдан сақла! (Абу Довуд ва Термизий ривояти).

( اللَّهُمَّ رَبَّ السَّمَوَاتِ السَّبْعِ، وَرَبَّ الْعَرْشِ الْعَظِيمِ، رَبَّنَا وَرَبَّ كُلِّ شَيْءٍ، فَالِقَ الْخَبِّ وَالنَّوَى وَمُنْزِلَ التَّوْرَةِ وَالْإِنْجِيلِ وَالْفُرْقَانِ، أَعُوذُ بِكَ مِنْ شَرِّ كُلِّ شَيْءٍ أَنْتَ آخِذٌ بِنَاصِيَتِهِ، اللَّهُمَّ أَنْتَ الْأَوَّلُ فَلَيْسَ قَبْلَكَ شَيْءٌ، وَأَنْتَ الْآخِرُ فَلَيْسَ بَعْدَكَ شَيْءٌ، وَأَنْتَ الظَّاهِرُ فَلَيْسَ فَوْقَكَ شَيْءٌ، وَأَنْتَ الْبَاطِنُ فَلَيْسَ دُونَكَ شَيْءٌ، إِفْضِ عَنَّا الدَّيْنَ وَأَغْنِنَا مِنَ الْفَقْرِ )

Етти осмон Парвардигори, улуғ арш Рабби, бизнинг ҳамда барча нарсанинг Парвардигори, уруғу данакни ёрувчи-ундирувчи, Таврот, Инжил ҳамда Фурқон (Қуръон)ни нозил этувчи эй Аллоҳ! Сен пешонасидан тутган (яъни, Сенинг салтанатинг остидаги) нарсанинг ёмонлигидан паноҳ беришингни сўрайман. Эй Аллоҳ! Сен Аввалдирсан ва Сендан олдин ҳеч нарса йўқ! Сен Охирдирсан! Сендан сўнг ҳам ҳеч нарса йўқ. Сен Зоҳирдирсан! Сенинг тепангда ҳеч нарса йўқ! Сен Ботиндирсан! (яқиндирсан) Сендан яқинда ҳам ҳеч нарса йўқ! Бизнинг устимиздан қарзни ўта ва бизни фақирликдан бой этгил. (Муслим ривояти).

( الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَطْعَمَنَا وَسَقَانَنَا، وَكَفَانَنَا، وَأَوَانَنَا، فَكَمْ مِمَّنْ لَا كَافِيَ لَهُ وَلَا مُؤَيِّ )

Бизни едирган, ичирган, кифоя этган (қараган, ҳимоялаган) ва бошпана берган Аллоҳга ҳамд бўлсин. Кифоя этувчиси, бошпана берувчиси бўлмаган қанча киши бор. (Муслим ривояти).

(اللَّهُمَّ عَالِمِ الْغَيْبِ وَالشَّهَادَةِ فَاطِرِ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ رَبِّ كُلِّ شَيْءٍ وَمَلِيكِهِ، أَشْهَدُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ أَعُوذُ بِكَ مِنْ شَرِّ نَفْسِي وَمِنْ شَرِّ الشَّيْطَانِ وَشِرْكِهِ، وَأَنْ أَقْتَرَفَ عَلَى نَفْسِي سُوءًا أَوْ أُجْرَهُ إِلَى مُسْلِمٍ )

Ғайбу ошкорни билувчи, осмонлару ернинг яратувчиси, бутун мавжудотнинг Парвардигори ва Эгадори бўлган эй Аллоҳ! Гувоҳлик бераманки, Сендан ўзга ҳеч қандай (барҳақ) илоҳ йўқ! Нафсимнинг ёмонлигидан, шайтоннинг ёмонлигидан ва унинг ширк (келтиришга чақириб қиладиган васвасаси)дан, ўзимга ёки ўзга муслимга ёмонлик етказишдан паноҳ беришингни сўрайман. (Абу Довуд ва Термизий ривояти).

اللَّهُمَّ أَسَلْتُكَ نَفْسِي إِلَيْكَ، وَفَوَضْتُ أَمْرِي إِلَيْكَ، وَوَجَّهْتُ وَجْهِي إِلَيْكَ، وَأَلْجَأْتُ ظَهْرِي إِلَيْكَ، رَغْبَةً وَرَهْبَةً إِلَيْكَ، لَا مَلْجَأَ وَلَا مَنْجَا ( مِنْكَ إِلَّا إِلَيْكَ، أَمَنْتُ بِكِتَابِكَ الَّذِي أَنْزَلْتَ، وَبِنَبِيِّكَ الَّذِي أَرْسَلْتَ .

Эй Аллоҳ! Ўзимни Сенга таслим этдим. Сенинг савобингни умид этиб, азобингдан қўрқиб ишимни Сенга топширдим-таваккал этдим. Сенга юзландим ва Сенга суяндим. Сенинг уқубатингдан сендан бошқа ҳимоялайдиган йўқ, паноҳгоҳ ҳам фақат Ўзингдир. Нозил этган китобингга, юборган набийингга иймон келтирдим. (Бухорий ва Муслим ривояти).

اللَّهُمَّ اهْدِنِي فِيمَنْ هَدَيْتَ، وَعَافِنِي فِيمَنْ عَافَيْتَ، وَتَوَلَّنِي فِيمَنْ تَوَلَّيْتَ، وَبَارِكْ لِي فِيمَا أَعْطَيْتَ، وَفِي شَرِّ مَا قَضَيْتَ، فَإِنَّكَ تَقْضِي وَلَا ( يُفْضَى عَلَيْكَ، إِنَّهُ لَا يَدُلُّ مَنْ وَالَيْتَ، [ وَلَا يَعْزُ مَنْ عَادَيْتَ ]، تَبَارَكْتَ رَبَّنَا وَتَعَالَيْتَ

Эй Аллоҳ! Мени ҳидоят этган кишиларинг қатори ҳидоят эт. Офият (соғлик, гуноҳлардан поклик) ато этганларинг қаторида офият бер. Яқин тутганларинг қаторида мени ҳам Ўзингга яқин эт. Ато қилган нарсаларингни мен учун баракотли эт. Қазо-ҳукм этган нарсаларинг ёмонлигидан мени асра. Албатта, Сен ҳукм этасан. Сенга (қарши) ҳукм этилмас. Сен дўст тутган киши хор бўлмас (ва Сен душман тутган киши азиз бўлмас). Парвардигоро! Сен баракотли-буюк ва олий Зотдирсан. (Абу Довуд, Термизий, Насоий, Ибн Можа ва бошқалар ривояти).

اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ بِرِضَاكَ مِنْ سَخَطِكَ، وَبِمَعَاذِكَ مِنْ عُقُوبَتِكَ، وَأَعُوذُ بِكَ مِنْكَ، لَا أَحْصِي ثَنَاءَ عَلَيْكَ، أَنْتَ كَمَا أَثْنَيْتَ عَلَيَّ ( نَفْسِكَ).

Эй Аллоҳ! Мен Сенинг розилигинг билан менга ғазаб қилишингдан, афву-кечиришинг билан мени азоблашингдан, Сендан Ўзингдан паноҳ беришингни тилайман. Сенга лойиқ бўлганинг каби ҳамду сано айтолмайман. Сен ўзингга сано айтганинг каbidирсан. (Абу Довуд, Термизий, Насоий, Ибн Можа ва бошқалар ривояти).

اللَّهُمَّ إِلَيْكَ تَعَبُدُ، وَلَكَ نُصَلِّي وَنَسْجُدُ، وَإِلَيْكَ نَسْعَى وَنَحْفِدُ، نَرْجُو رَحْمَتَكَ، وَنُخْشَى عَذَابَكَ، إِنَّ عَذَابَكَ بِالْكَافِرِينَ مُلْحَقٌ، اللَّهُمَّ إِنَّا ( نَسْتَعِينُكَ، وَنَسْتَغْفِرُكَ، وَنُثْنِي عَلَيْكَ الْحَمْدَ، وَلَا نَكْفُرُكَ، وَنُؤْمِنُ بِكَ، وَنُخْضَعُ لَكَ، وَنُخْلَعُ مِنْ يَكْفُرِكَ

Эй Аллоҳ! Сенга ибодат этурмиз ва Сен учун намоз ўқиб саждалар қиламиз. Сен томон (яқин бўлиш учун) ҳаракат этиб, Сенинг тоатингга ошиқамиз. Раҳматингдан умидвормиз, азобингдан қўрқамиз. Албатта, азобинг кофирларга етувчидир. Парвардигоро! Биз Сендан мадад сўраймиз, мағфират тилаймиз. Сенга яхши сано-мақтовлар айтамиз. Сенга кофир бўлмаймиз. Сенга иймон келтириб, итоат этамиз ва Сенга кофир бўлган кимсаларни тарк қиламиз. (Байҳақий ривояти. Албоний санадини саҳиҳ деган).

اللَّهُمَّ إِنِّي عَبْدُكَ، ابْنُ عَبْدِكَ، ابْنُ أَمَتِكَ، نَاصِيَتِي بِيَدِكَ، مَا ضَافِي حُكْمَكَ، عَدْلٌ فِي قَضَائِكَ، أَسْأَلُكَ بِكُلِّ اسْمٍ هُوَ لَكَ، سَمَّيْتَ بِهِ نَفْسَكَ، ( أَوْ أَنْزَلْتَهُ فِي كِتَابِكَ، أَوْ عَلَّمْتَهُ أَحَدًا مِنْ خَلْقِكَ، أَوْ اسْتَأْذَنْتَ بِهِ فِي عِلْمِ الْعَالَمِينَ، أَنْ تَجْعَلَ الْقُرْآنَ رَبِيعَ قَلْبِي، وَتُورَ صَدْرِي، وَجَلَاءَ حَزْني وَذَهَابَ هَمِّي .

Эй Аллоҳим! Албатта, мен Сенинг қулингдирман. Қулингни ўғлиман. Чўрингни ўғлиман. Пешонам қўлингда (яъни, мен Сенинг салтанатинг-ҳукминг остидаман). Ҳукминг менинг устимда жорийдир. Менинг устимдаги қазо (амр-ҳукминг) адолатдир. Сенинг учун бўлган ҳар бир исм билан Сендан сўрайман. У исм билан Ўзингни номлаган эдинг ёки бирон китобингда нозил қилган эдинг ёки уни бирон бандангга билдиргандинг ёки Ўз олдингдаги ғайб илмида олиб қўйган эдинг. Шу исмларнинг ҳаммаси билан сўрайман. Қуръонни

калбимнинг баҳори, кўнглимнинг нури, маҳзунлигимни кетиши (кетказувчи) ва ташвишимни кетиши (аритувчи) қил. (Аҳмад ривояти. Албоний саҳиҳ деган).

(اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ مِنَ النَّهَمِ وَالْحَزَنِ، وَالْعَجْزِ وَالْكَسَلِ، وَالنُّبْلِ وَالْجُبْنِ، وَضَلَعِ الدَّيْنِ وَغَلَبَةِ الرِّجَالِ).

Парвардигоро! Мен Сендан ташвишу ғамдан, ожизликдан, ялқовликдан, бахилликдан, қўрқоқликдан, қарзнинг оғирлигидан ва кишиларнинг ғолиб бўлиб кетишидан паноҳ беришингни сўрайман. (Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам бу дуони кўп айтар эдилар). (Бухорий ривояти).

( لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ الْعَظِيمُ الْحَلِيمُ، لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ رَبُّ الْعَرْشِ الْعَظِيمِ، لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ رَبُّ السَّمَوَاتِ، وَرَبُّ الْأَرْضِ، وَرَبُّ الْعَرْشِ الْكَرِيمِ ).

Улуғ, Ҳалим Аллоҳдан Ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ. Арш эгаси улуғ Аллоҳдан ўзга ҳеч (ҳақ) илоҳ йўқ. Осмонлар Рабби, ернинг Рабби, аршнинг Рабби бўлган Карим Аллоҳдан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ. (Бухорий ва Муслим ривояти).

(اللَّهُمَّ رَحْمَتَكَ أَرْجُو، فَلَا تَكِلْنِي إِلَى نَفْسِي طَرْفَةَ عَيْنٍ، وَأَصْلِحْ لِي شَأْنِي كُلَّهُ، لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ ).

Эй Аллоҳим! Раҳматингдан умидворман. Мени бирон лаҳза ҳам ўзимга топшириб қўйма. Менинг бутун шаънимни-ишларимни ўнгла. Сендан ўзга ҳеч қандай (барҳақ) илоҳ йўқ. (Абу Довуд ва Аҳмад ривояти).

( لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ، سُبْحَانَكَ، إِنِّي كُنْتُ مِنَ الظَّالِمِينَ ).

Сендан ўзга ҳеч бир (барҳақ) маъбуд йўқ. Сен барча айбу нуқсондан пок Зотдирсан. Албатта, мен зулм қилувчилардан бўлдим. (Термизий ва Ҳоким ривояти).

( اللَّهُ أَكْبَرُ، اللَّهُ أَعَزُّ مِنْ خَلْقِهِ جَمِيعًا، اللَّهُ أَعَزُّ مِمَّا أَخَافُ وَأُحْذَرُ، أَعُوذُ بِاللَّهِ الَّذِي لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ، الْمُمْسِكِ السَّمَاوَاتِ السَّبْعِ أَنْ يَقَعْنَ عَلَى الْأَرْضِ إِلَّا بِإِذْنِهِ، مِنْ شَرِّ عَبْدِكَ فُلَانٍ، وَجُنُودِهِ، وَأَتْبَاعِهِ، وَأَشْيَاعِهِ، مِنَ الْجِنِّ وَالْإِنْسِ، اللَّهُمَّ كُنْ لِي جَارًا مِنْ شَرِّهِمْ، جَلَّ تَنَائُوكَ، وَعَزَّ جَارُكَ، وَتَبَارَكَ اسْمُكَ، وَلَا إِلَهَ غَيْرُكَ )

Аллоҳ буюкроқдир! Аллоҳ жамики махлуқотларидан қудратли – Азиз зотдир. У мен қўрқаётган ва хавфланаётган кимсалардан қудратлироқдир! Яккаю ёлғиз илоҳ бўлган етти осмонни ер устига тушиб кетишидан тутиб турувчи – магар Унинг изни билан тушиши мумкин – Аллоҳдан фалончи банданг ҳамда унинг инсу жинлардан бўлган қўшинлари, эргашувчилари ва гуруҳларининг ёмонлигидан паноҳ беришини сўраб илтижо этаман. Эй Аллоҳим! Мени уларнинг шарри-ёмонлигидан асровчи ҳимоячим бўл. Сенинг мақтовинг юсак, ҳимоянг қудратлидир. Сенинг исминг буюк-баракотлидир ва Сендан ўзга (ҳақ) илоҳ йўқ. (Бухорий ривояти).

( رَبِّ اغْفِرْ لِي، رَبِّ اغْفِرْ لِي ).

Парвардигоро, мени мағфират қил. Парвардигоро, мени мағфират қил. (Абу Довуд ва Ибн Можа ривояти).

( اللَّهُمَّ اغْفِرْ لِي، وَارْحَمْنِي، وَاهْدِنِي، وَاجْبُرْنِي، وَعَافِنِي وَارْزُقْنِي، وَارْفَعْنِي ).

Парвардигоро, мени мағфират эт. Менга раҳм эт. Мени ҳидоят қил, ўнгла ва офият (соғлик) ато эт. Менга ризқ бер ва мени баланд қил. (Абу Довуд, Термизий ва Ибн Можа ривояти).

(اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ أَنْ أَضِلَّ، أَوْ أَضَلَّ، أَوْ أَزِلَّ، أَوْ أُزِلَّ أَوْ أَظْلِمَ أَوْ أُظْلَمَ، أَوْ أَجْهَلَ أَوْ يُجْهَلَ عَلَيَّ)

Эй Аллоҳ, мен Сендан адашишдан ёки адаштирилишдан, тойиш ёки тойдирилишдан ёки зулм қилиш ёки зулмланишдан ёки (бировга) жоҳиллик қилиш ёки менга жоҳиллик қилинишдан паноҳ беришингни сўрайман. (Абу Довуд, Насоий, Термизий ва Ибн Можа ривояти).

( لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ الْوَاحِدُ الْقَهَّارُ، رَبُّ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ وَمَا بَيْنَهُمَا الْعَزِيزُ الْغَفَّارُ ) .

(Мутлақ Ғолиб) Қаҳҳор, осмонлар, ер ва улар ўртасидаги мавжудотлар Парвардигори Азиз ва Ғаффор (кечирувчи) бўлган ягона Аллоҳдан ўзга ҳеч бир (ҳақ) илоҳ йўқ. (Насоий ривояти. Ҳоқим ва Заҳабий саҳиҳ деган).

(اللَّهُمَّ اكْفِنِي بِحَلَالِكَ عَنْ حَرَامِكَ، وَأَغْنِنِي بِفَضْلِكَ عَمَّنْ سِوَاكَ)

Эй Аллоҳ! Мени ҳалолинг билан ҳаромингдан сақла, тўс. Фазлу марҳаматинг билан ўзгалардан беҳожат эт. (Термизий ривояти).

(اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ مِنَ الْهَمِّ وَالْحَزَنِ، وَالْعَجْزِ وَالْكَسَلِ، وَالْبُخْلِ وَالْجُبْنِ، وَصَلَعِ الدَّيْنِ وَغَلَبَةِ الرِّجَالِ)

Парвардигоро! Мен Сендан ташвишу ғамдан, ожизликдан, ялқовликдан, бахилликдан, кўрқоқликдан, қарзинг оғирлигидан ва кишиларнинг ғолиб бўлиб кетишидан паноҳ беришингни

( اللَّهُمَّ إِنِّي أَعُوذُ بِكَ أَنْ أَشْرِكَ بِكَ وَأَنَا أَعْلَمُ، وَأَسْتَغْفِرُكَ لِمَا لَا أَعْلَمُ ) .

Эй Аллоҳ! Сенга билиб турган ҳолимда ширк келтириб қўйишдан ўзинг сақла. Билмасдан келтирганларим учун Сендан кечирим-мағфират сўрайман (Аҳмад ва бошқалар ривояти). сўрайман. (Бухорий ривояти).

{ رَبَّنَا آتِنَا فِي الدُّنْيَا حَسَنَةً وَفِي الْآخِرَةِ حَسَنَةً وَقِنَا عَذَابَ النَّارِ }

«Парвардигоро, бизга бу дунёда ҳам яхшилик ато қил, охиратда ҳам яхшилик ато эт ва бизни дўзах азобидан асра». (Бақара: 201).

( أَسْتَغْفِرُ اللَّهَ الْعَظِيمَ الَّذِي لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ الْحَيُّ الْقَيُّومُ وَأَتُوبُ إِلَيْهِ )

«Яккаю ёлғиз, барҳаёт ва абадий турувчи улуғ Аллоҳдан мағфират этишини сўрайман, Унга тавба қиламан». (Абу Довуд, Термизий ва Ҳоқим ривояти. Албоний саҳиҳ деган).

«لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ سُبْحَانَكَ إِنِّي كُنْتُ مِنَ الظَّالِمِينَ»

Сендан ўзга ҳеч бир илоҳ йўқдир, мен хақиқатда ўзига-ўзи зулм қилганлардан бўлдим...».

Аллоҳумма амийн.